

MAQOM XONANDALIGI TALABALARIDA KASBIY KO'NIKMALARNI HOSIL QILISH MASALALARI



Mansur Voisov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Maqom xonandaligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Tabiiyki, musiqiy merosning ustozona, ya'ni mumtoz namunalari yaratish va talqin etish jarayonida ohang va shakl jihatidan turlicha ko'rinishlar paydo bo'lishi ehtimoldan holi emas. Natijada, an'anaviy ijrochilik oqimida asarlarning badiiy talqini bilan bog'liq turli ijroviy uslublar va maktablar shakllangan. Ushbu uslublar davrlar davomida musiqiy amaliyotda o'zgarish va evrilishlardan o'tib, ma'lum bir ijodiy tizim va uslubiy qoidalar asosida rivojlanib, o'zining munosib o'rnini egallab kelgan. Ushbu maqolada maqom xonandaligi talabalarida kasbiy ko'nikmalarni hosil qilish masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: maqom, xonanda, kasbiy ko'nikma, musiqa san'ati, talaba, ijrochilik, ohang, uslub, o'quv dastur, didaktik mezon.

Аннотация: Естественно, в процессе создания и интерпретации классических образцов музыкального наследия могут возникать различные формы и мелодии. В результате в традиционном исполнительском течении сформировались различные исполнительские стили и школы, связанные с художественной интерпретацией произведений. Эти стили на протяжении многих периодов претерпевали изменения и трансформации в музыкальной практике, развивались на основе определенной творческой системы и стилистических правил и занимали свое достойное место. В данной статье научно проанализированы вопросы формирования профессиональных навыков у студентов-певцов макома.

Ключевые слова: маком, певец, профессиональные навыки, музыкальное искусство, студент, исполнительство, мелодия, стиль, учебная программа, дидактический критерий.

Abstract: Naturally, various forms and melodies can emerge in the process of creating and interpreting classical examples of musical heritage. As a result, various performance styles and schools related to the artistic interpretation of works have formed within the traditional performance movement. These styles have undergone changes and transformations in musical practice over many periods, developing on the basis of a certain creative system and stylistic rules, and occupying their rightful place. In this article, the issues of forming professional skills in student maqom singers are scientifically analyzed.

Keywords: maqom, singer, professional skills, musical art, student, performance, melody, style, curriculum, didactic criterion.

Ta'lim jarayoni yoki ta'lim bosqichlari o'ziga xos didaktik mezonlar asosida tartibga solingan bo'lib, maktab ta'limidan tortib to magistratura bosqichigacha bo'lgan tizim uzviy integratsiya tamoyillariga ko'ra tashkil etiladi. Har bir bosqich mazkur tamoyillardan kelib chiqib ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Mumtoz musiqa san'ati esa tarixan ustoz-shogird an'alariga tayangan, o'ziga xos xalqona-pedagogik uslub orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan o'quv-tarbiyaviy jarayondir. Ushbu an'ananing qadimiyligi, unda shakllangan ko'p yillik tajriba, shogird uchun belgilab qo'yilgan ma'lum mezonlar va bosqichma-bosqich o'zlashtirish tamoyillari uning pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur jarayon nafaqat musiqa ijrochiligini egallash, balki badiiy tafakkur, ichki eshitish, ijodiy idrok kabi ko'nikmalarni ham izchil shakllantirishga xizmat qilgan.

Zamonaviy ta'lim jarayoni esa o'quv faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, ilg'or axborot-kommunikatsiya vositalari, innovatsion kompyuter texnologiyalari hamda zamon talabi bilan belgilanadigan pedagogik mezonlarga tayanadi. Bugungi ta'lim muhiti o'qituvchi va talabdan yuqori darajadagi kompetensiyalarni talab etishi bilan birga, ta'limning barcha bosqichlarida sifat va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Talaba o'zi tanlagan mutaxassislik yo'nalishi doirasida ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy-pedagogik faoliyat hamda ixtisosiga daxldor amaliy jarayonlarni mustaqil ravishda, ilmiy metodologiya talablari asosida olib borishi zarur. Bu jarayon talabning nazariy bilimini chuqurlashtirishi, ilmiy tafakkurini mustahkamlashi va mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir.

Kasbiy faoliyatda mumtoz an'alarining davomchisi sifatida talabalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng va samarali foydalanishga qodir bo'lishi lozim. Chunki hozirgi davr ijrochisi nafaqat an'anaviy tajribani bilishi, balki uni raqamli platformalar, elektron ma'lumotlar bazalari, multimediali dasturlar bilan uyg'unlashtirib qo'llay olishi bilan ham ajralib turadi.

Musiqa san'ati ijrochiligi amaliyotiga xos barcha jihatlarni ilmiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qila olish, musiqiy fenomenlarning nazariy asoslarini anglash va ular ustida mulohaza yurita olish magistr uchun muhim kompetensiyadir. Milliy musiqa namunalari ustida olib boriladigan nazariy izlanishlar nafaqat ularning badiiy-ijodiy tuzilishini ochib beradi, balki ushbu asarlarning estetik, tarixiy va ma'naviy mohiyatini yoritish imkonini yaratadi. Bunday yondashuv natijasida magistr nafaqat mavjud merosni o'rganadi, balki uning asl mohiyatini anglash, talqin qilish va ilmiy asosda qayta tadqiq etish salohiyatiga ega bo'ladi.

Eng muhim jihati shundaki, talaba mazkur jarayonda o'zining nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashi, ilmiy va amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etishi, mavjud ilmiy muammolarni mustaqil tahlil qilishi hamda izlanishlar olib borishi zarur. Zero, ilmiy natijalar ta'lim tizimini boyituvchi, amaliy jarayonlarni takomillashtiruvchi va milliy musiqa merosining zamonaviy talqinda yashab qolishini ta'minlovchi muhim manbadir.

Musiqa san'atining eng asosiy omillaridan biri bo'lgan ijrochilik an'analari milliy musiqiy merosning avloddan-avlodga uzluksiz yetib kelishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu an'alar ajdodlarimiz amaliyotida shakllanib, rivojlanib, bebaho tajriba sifatida saqlangan va zamon talablariga mos holda yangicha badiiy mazmun kasb etib kelgan. Shu bois, ijrochilik jarayoni nafaqat musiqiy merosni jonli ravishda avlodlarga yetkazuvchi vosita, balki milliy musiqiy madaniyatning ruhiy va estetik mohiyatini ifodalovchi muhim mezon sifatida ham xizmat qiladi.

Musiqiy meros asosan og'zaki an'ana yo'li bilan yaratilgan, o'rganilgan va ijro etilgan bo'lib, shunday shaklda o'tgan asrlardan bugungi kungacha yetib kelgan. Shu bilan birga, ijrochilik an'analari o'z rivojlanish jarayonida davr talablariga va yashash sharoitlariga moslashib, yangi ijodiy yondashuvlar va uslubiy yangiliklarni qabul qilib, doimiy yangilanib turadi. Aslida, ijrochilik amaliyoti o'zining qonuniyatlari va ichki tartib-intizomi orqali musiqiy jarayonning har tomonlama rivojlanishiga, davr taraqqiyoti va badiiy yangiliklarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodirligini

namoyon etadi. Shu tariqa, ijrochilik an'analari milliy musiqa merosining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy badiiy-jamiyatiy ahamiyatini ham ta'minlaydi.

Tabiiyki, musiqiy merosning ustozona, ya'ni mumtoz namunalarini yaratish va talqin etish jarayonida ohang va shakl jihatidan turlicha ko'rinishlar paydo bo'lishi ehtimoldan holi emas. Natijada, an'anaviy ijrochilik oqimida asarlarning badiiy talqini bilan bog'liq turli ijroviy uslublar va maktablar shakllangan. Ushbu uslublar davrlar davomida musiqiy amaliyotda o'zgarish va evrilishlardan o'tib, ma'lum bir ijodiy tizim va uslubiy qoidalar asosida rivojlanib, o'zining munosib o'rnini egallab kelgan. Shu jarayonda ijrochilik shakllarining rang-barangligi bevosita musiqa ijodiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi, asarlarning badiiy ifodasi va ijro uslublaridagi o'ziga xoslikni ta'minlaydi.

Musiqiy merosni o'rganish jarayonida uning tarixiy o'rni, tarkibiy tuzilishi, ijrochilik va targ'ibot jihatlari bo'yicha qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, musiqashunoslar va tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan muammolardan biri — musiqaning ijrochilik omillaridir. Mumtoz musiqaning tarkibida katta ashula, suvara, doston, maqom va maqom yo'llarining ijrochilik an'analari xalq musiqiy ijodiyotida asrlar davomida shakllangan va o'ziga xos ijroviy uslublarga asoslangan holda rivojlanib kelgan. Amaliyotda bu uslublar ijrochilar o'rtasida an'anaga aylangan bo'lib, har bir ijrochilik maktabi ma'lum ijro omillari va janriga xos talablar asosida yuzaga kelgan.

Har bir ijroviy uslub o'ziga xos janrik talablar doirasida shakllanadi, talqin va xarakter bilan ifodalanadi. Shu jihatdan, ijrochilik amaliyotida nafaqat maqom yoki dostonchilik, balki maqom yo'llari asosida shakllangan turli janrlarga xos ijro usublari ham mavjud bo'lib, ular asarlarning badiiy mohiyatini to'liq ochib berish va musiqiy merosni avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir shaxsiy va voha ijro usublari, ya'ni ijrochilik maktablarining xarakterli jihatlarini ochib berish va amaliy o'zlashtirish jarayonida, ashula ijrochiligi va hofizlik san'atiga xos bo'lgan asosiy omillar asos sifatida olinadi. Ularni mukammal tadqiq etish va o'rganish maqsadida, maktab namoyandalarning talqin jarayonidagi ovoz harakatlari maxsus, ohang sayqalisiz ifodalanadigan shakllar orqali chuqur tahlil qilinishi zarur. Asosiy maqsad — ijrochilik an'alarini to'liq anglash va tasavvur qilish, shuningdek, musiqiy namunalarni amaliy ijro jarayonida to'g'ri qo'llay olishdir.

Musiqiy namunalarni puxta o'zlashtirishda quyidagi jihatlar alohida e'tiborga loyiqdir: tovush qatori, tuzuk jihatlari, ovoz harakatlari, nafasdan foydalanish tartib va qoidalari, ijro uslublarini qo'llash, asarlarning tarkibiy tuzilishi va dinamik rivoji kabi ijrochilik talqinini belgilovchi omillar. Ushbu jihatlarini chuqur o'zlashtirish har bir magistrantning amaliy va nazariy tayyorgarligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, ushbu ijrochilik uslublarini amaliy jihatdan chuqur o'rganish va tahlil qilish har bir magistratura bosqichi talabasi uchun asosiy maqsad va dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat talabaning nazariy va amaliy tayyorgarligini mustahkamlash, balki milliy musiqa san'atining an'anaviy merosini yangi avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Xonandalik san'ati tarkibi juda keng va murakkab bo'lib, uning turli yo'nalishlari mavjud. Shu kontekstda, biz mumtoz yo'nalishlarda shakllangan xonandalik san'ati namoyandalariga alohida to'xtalishni maqsad qilamiz. Bu yo'nalishlar o'z ijrochilik mezonlari bilan mumtozlik xususiyatini saqlab qolgan bo'lib, ular maqom va maqom yo'llariga xos ashula, doston, katta ashula va suvara janrlarining ijrochilarini o'z ichiga oladi.

Har bir janr o'ziga xos ijro uslubi, shakl jihatlari va ijrochilik xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar uzoq asrlar davomida janrlilik va ijrochilik imkoniyatlari asosida shakllangan bo'lib, tarixiy tajriba va badiiy-estetik qadriyatlar bilan mustahkamlangan. Shu tariqa, mumtoz xonandalik

san'ati namoyandalari o'z ijrochilik maktablari orqali har bir janrning noyob badiiy va amaliy xususiyatlarini ifodalaydi, shuningdek, milliy musiqa merosini avloddan-avlodga yetkazishda beqiyos rol o'ynaydi.

Ijrochilik an'analari tarkibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo ta'kidlash lozimki, har bir janr o'ziga xos ijro yo'liga ega bo'lib, shu bilan birga, ular milliy qadriyatlar va an'alar bilan bog'liq umumiy jihatlarga ham ega. Har bir janrning o'z uslubida shakli, shamoiligi va ijro holati muayyan tabiiy unsurlarni talab qiladi.

Bunday tabiiy unsullar qatoriga mukammal va musiqiy ovoz, yuqori iste'dod, tafakkurning zukkolikka moyilligi kiradi. Shu jihatlarga ega bo'lgan xonanda albatta mukammallik darajasidagi talqinni shakllantira oladi. Biroq, bu xususiyatlar faqat tabiiy salohiyat bilan cheklanishi yetarli emas; ular muntazam va malakali saboq orqali chuqur o'zlashtirilishi, doimiy amaliy mashg'ulotlar bilan mustahkamlanishi lozim. Shu tariqa, xonanda nafaqat o'zining tabiiy iste'dodini rivojlantiradi, balki janrlilik va ijrochilik an'analari talqinida yuqori professional darajaga erishadi, milliy musiqiy merosning badiiy va amaliy qadriyatlarini to'liq anglay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari, T., 2001.
2. R.Abdullayev "O'zbek mumtoz musiqasi" T., 2008.
3. S.Begmatov. "Hofizlik san'ati" T., 2007.
4. S.Begmatov. Berta Davidova, (Monografiya), T., 2022.
5. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent, 1994.